INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://science-research.org.uz/index.php/ITSE

TO‘DAKO‘L VA QUYIMOZOR SUV OMBORLARI ATROFIDA TARQALGAN TUPROQLARNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Mirzoyeva I.E.
BuxDU “Ekologiya va geografiya’’ kafedrasi
katta o‘qituvchisi, g.f.f.d. (PhD)
Нематов А.Н
BuxDU “Ekologiya va geografiya’’ kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada arid iqlim mintaqasida tarqalgan tuproqlarni o‘rgangan olimlarning ishlari o‘rganilib, To‘dako‘l - Quyimozor suv omborlari atrofida tarqalgan tuproqlar va ularning geografik xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Tuproq, botqoq o‘tloq, botqoq sho‘rxok tuproqlar, sho‘rxok, cho‘l, avtomorf, taqirli, cho‘l qumli, sur qo‘ng‘ir, relyef, sizot, gidromorf, rekultivatsiya.

Abstract: The article examines the works of scientists studying soils distributed in the arid climate zone and provides information about the soils distributed around the Tudakul-Kuyimazar reservoirs and their geographical features.

Keywords: Soil, marsh meadow, marsh saline soils, saline, desert, automorphic, takyr, desert sandy, gray-brown, relief, seepage, hydromorphic, reclamation.

Аннотация: В статье рассматриваются работы ученых, изучавших почвы, распространенные в аридном климатическом поясе и приводятся сведения о почвах, распространенных вокруг Тудакульско-Куймазарского водохранилищ и их географических особенностях.

Ключевые слова: Почва, болотистый луг, болотистые солончаки, солончак, пустыня, автоморфный, такырный, пустынно-песчаный, серо-бурый, рельеф, грунт, гидроморфный, рекультивация.

Ma’lumki, tuproq tabiatning eng muhim tarkibiy qismlaridan bo‘lib, o‘zida jonli va jonsiz tabiiy borliqni mujassam qilgan hosiladir. Tuproqlar ona jinsining xususiyati, joyning relyefi, sizot suvlarining kimyoviy tarkibi va chuqurligi kabi omillarga binoan tuproqlarning tiplari almashinib turadi. Tuproqshunos V.V.Dokuchayev qayd qilganidek, tabiiy - tarixiy hosila, landshaftlarning oynasidir, u jonsiz tabiatni bir-biriga dialektik bog‘lab turuvchi bir butunlikka ega bo‘lgan tabiiy tizim qobiqdir. V.A.Kovda qayd qilganidek, u organik dunyo uchun boshpana yashash muhitidir. Tuproqning eng muhim xususiyatlaridan biri uning unumdorlikka ega bo‘lishi, ya’ni hosil berishidir. Geografik til bilan aytganda, u landshaft ichidagi landshaftdir (I.Q.Nazarov). O‘zlashtirilganlik darajasiga ko‘ra tuproqlar ikkita katta guruhga (cho‘l va voha) ega. Sug‘oriladigan tuproqlarni o‘rganishda M.A.Orlovning (1937) xizmatlari katta. Uning fikricha, vohalarda madaniy tuproqlar shakllangan.N.V.Kimberg O‘zbekistonning cho‘l zonasi tuproqlarini batafsil o‘rganadi (1974). U cho‘l zonasida 6 ta tuproq tipini (o‘tloq, botqoq, sho‘rxok, taqirli, cho‘l qumli, sur qo‘ng‘ir), vohalarda esa 3 ta tuproq tipini (cho‘l zonasining o‘tloq voha, cho‘l zonasining botqoqli voha, taqirli voha tuproqlari)ni ajratadi.

Suv omborga tutash hududlarning tuproqlari, ularning morfologiyasi va genezisi to‘g‘risidagi ma’lumotlar V.A.Kovda (1967), A.N.Rozanov (1958), M.A.Pankov (1949, 1962, 1974). X.T.Artikovalarning (2022) ilmiy asarlarida ko‘rsatilgan. Ko‘proq ular suv omborlarga tutash Buxoro

vohasi, Qiziltepa tumani, O‘rtacho‘l hududining tuproqlarini o‘rgangan. To‘dako‘l va Quyimozor suv omborlariga tutash hududlarda quyidagi tuproq turlari tarqalgan bo‘lib, ularga avtomorf, yarim gidromorf, gidromorf va sho‘rxok tuproqlar kiradi.

Cho‘l qo‘riq tuproqlari orasida qo‘ng‘ir tusli sur, qumli cho‘l, taqir, taqirli tuproqlar va sho‘rxoklar keng tarqalgan. Qumli cho‘l tuproqlari va o‘simlik qoplamiga ega bo‘lmagan qumli maydonlarning ko‘lami juda katta. Chirindiga kambag‘al – 0,27-0,66 foiz.

Avtomorf tuproqlar guruhiga qumli cho‘l tuproqlari va och tusli bo‘z tuproqlar kiradi. Qumli tuproqlar esa To‘dako‘l suv ombori va Saritosh platosi oralig‘ida joylashgan tekis maydonlarda Podao‘tgach, Uchqum, Toshtaqqum, Kavakliqum kabi hududlarni hosil qildi. Uchqum va Toshtaqqumning asosiy qismini pushtali qumlar egallaydi, suv omboridan 20 km uzoqlikda hamda yer osti suvlari sathi pastda bo‘lgan, 5-10 metr va undan yuqori balandliklardagi qum tepaliklarda uchraydi. Qumli cho‘l tuproqlarida chirindi va ozuqa moddalarning miqdori kam bo‘ladi. Chunki, bu tuproqlarda biologik jarayonlar qisqa muddatda, juda tez o‘tadi va chirindi miqdori 0,3-0,6 % ni tashkil qiladi. Ular aksariyat meridional yo‘nalishga ega bo‘lib o‘simliklar bilan mustahkamlangan. O‘rtacho‘ldan uzoq tarixiy davrlardan buyon asosan mayda tuyoqli chorva uchun yaylov sifatida foydalanib kelingan.[3]

Suv omboriga tutash agroirrigatsion landshaftlarda sug‘orishning me’yordan ortiqligi hamda suv ombori suv sathining ko‘tarilishi sababli ushbu tuproqlar yer osti suvlari yuza joylashgan yerlar sho‘rlanib, sho‘rxoksimon bo‘z tuproqlarga, ba’zan esa sho‘rxoklarga o‘zgaradi. Avtomorf tuproqlarda gurunt suvlari sathi ko‘tarilishi bilan ular yarim gidromorf (bo‘z o‘tloq tuproqlarda yer osti suvlari sathi 2 metrdan pastda bo‘ladi), gidromorf (botqoq o‘tloq va botqoq sho‘rxok tuproqlar, gurunt suvlari sathi 0-2 metrgacha) hamda sho‘rxoklarga (cho‘l hududlarida sho‘rxok botqoqlarni qurib qolganidan so‘ng hosil bo‘ladigan tuproq turi) aylanadi.

Sho‘rxok tuproqlar suv omborlar atrofining katta maydonlariga tarqalgan. Sug‘oriladigan yerlardagi voha tuproqlari yuqorida qayd etilgan tuproqlar zaminida vujudga kelgan bo‘lib, o‘zlashtirilganlik darajasi va agroximik xususiyatlari bilan farqlanadi. Sug‘orma tuproqlar turli darajada sho‘rlangan. Bunga vohalarning Zarafshon daryosining deltasida joylashganligi relyefdagi nishablikning yetarli emasligi, bug‘lanish miqdorining ko‘pligi asosiy sabablardandir. Taqir tuproqlar mexanik tarkibining og‘irligi, tekis yuzali relyefga ega bo‘lganligi bilan farqlanib turadi. Bu tuproq odatda sho‘rlangan, ozuqa moddalarga nisbatan boyroq. Chirindi miqdori 0,41–1,06 % atrofida bo‘lib, sug‘orma dehqonchilik uchin bir muncha qulayliklarga ega. Sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlar, To‘dako‘l suv omborining sharqiy qismi, O‘rtacho‘l hududi, Quyimozor suv omborining janubiy-g‘arbi hamda Buxoro vohasining katta maydonlariga tarqalgan (1-rasmga qarang).

O‘tloqi taqir allyuvial tuproqlar, Buxoro vohasi, Uchqum, Podautau qumliklari atrofida katta maydonda tarqalgan.

To‘dako‘l – Quyimozor suv omborlarining tuproq qoplami belgilari va xossalariga ko‘ra g‘oyat xilma-xil bo‘lib, quyidagi genetik tuproq guruhlaridan tashkil topgan:

a) Buermantov past tog‘lari rayoni;

b) dellyuvial – yotqiziq tog‘ osti tekisligi hududi;


d) tog‘lararo yotqiziq tekislikning markaziy qismi.

Buermantov past tog‘lari hududida gipslangan yengil soz tuproqlar, qumloqlar va qumlardan tashkil topgan bo‘lib, yirik qum, chaqir tosh, shag‘al tosh aralashmalari va tagida qumtosh hamda neogen yotqiziqlari bor. Rayonning dasht markaziy qismiga tutashgan hududida sizot suvlarning oqib ketishi natijasida, kulrang-qo‘ng‘ir tusdagi tuproqlar, yengil-qumoq va qumloq tarkibli bo‘lib, kuchsiz va o‘rtacha darajada yirik qum, chag‘irtosh, chag‘altosh aralashmalariga ega.

Quyimozor platosi va uning etagida joylashgan maydonlar o‘ta sho‘rlangan qum-chag‘illi allyuvial yotqiziqlar bilan qoplangan. Bu yotqiziqlardan uzoq yillar davomida qurilish ashyosi sifatida foydalanib kelinmoqda (Quyimozor chag‘il zavodi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda).

Gipslangan uchastkalarda esa gips sho‘rxoklangan, bu esa tuproqning chiqishiga va diffuzion hodisalar avj olishiga olib keldi. Katta maydonlar o‘zlashtirilishi natijasida bu yerlarning ayrim

joylarida mutlaqo unumsiz gips qavati ochilib qolgan. Ayrim joylarda gipsning miqdori 0,5-1,0%ni tashkil etib, ba'zi yerlarda chuqurchali yoki zovurli usulda mayin tuproq tashib kelish yo'li bilan tokzor va mevali chorbog'lar barpo qilinishi yoki ko'p yillik ekinlar ekilgani ma'qulroq [5]. Yuza qavatli gipslashgan tuproqlardan tashkil topgan bo'lib, ular ayrim uchastkalarda yirik qum, chag'iltosh va toshloq aralashmalari uchraydi.



1-rasm. To'dako'l va Quyimozor suv omborlari atrofida tarqalgan tuproqlar.

To'dako'l suv omborining g'arbiy sohili bo'ylarini ham egallaydi va (Uchlik suv taqsimlagich rayoniga boradi) bunday qatlamli yerlarda sur tusli qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Bular avtomorf tuproqlar sinfiga kiradi. Tuproq tuzilishi odatda skletli, 20 - 30 sm qatlamdan so'ng gipsli qatlam boshlanadi. Lekin ularning zichligi nam sig'imli joylardan farq qiladi. O'zlashtirish uchun qator noqulaylikka ega. Birinchidan, relyef to'lqinli, sug'orish ishlarini qiyinlashtiradi; ikkinchidan, gipsli qatlamlar suvda yaxshi iviydi, solifluksion, ya'ni o'pqonlar, kichik erozion chuqurchalar hosil qiladi.

Topografik pastqam yerlarda sho'rxoklar tarqalgan bo'lib, ular odatda orolchasimon katta kichik maydonlar hosil qiladi. Eng yirigi Xojkab sho'rxokidir, mazkur sho'rxok tuz-balchiq qatlamlardan iborat, uning ustida yurish xavfli, botib ketish mumkin. Och bo'z tuproqlari Buyermana qir plato yonbag'irlarida va O'rtacho'l massivi uchun xos. Ular odatda sarg'ish - kulrang bo'lib, lyossimon, prollyuvial jinslardan tarkib topgan. Chirindi miqdori 1,5-2,0% atrofida, O'rtacho'l vohasida esa sug'oriladigan och bo'z tuproqlar tarqalgan.

Hududning yuza qismi och bo'z, qisman esa sur-qo'ng'ir tuproqlardan tashkil topgan. Mazkur hududda tuproq hosil qiluvchi jinslar asosan allyuvial negizga ega bo'lib, Zarafshon daryosi, so'ng uning Quyimozor tarmog'i orqali hamda Qashqadaryo vodiysidan kirib kelgan qadimgi Suvqaytdi soylarining qum - gil, qum – chag'il yotqiziqlari bilan to'lgan. Qum-chag'illi qatlamlarning qalinligi sharqqa, ya'ni Ziyovuddin tog'lariga tomon ortib boradi. Qiziltepa nasos stansiyasi oldida qum-chag'illi qatlamning qalinligi 20-25 metrgacha yetadi.

Quyimozor platosidagi chag'il konlaridan foydalanish natijasida chuqurligi 5-6 metr, diametri 55-60 metr va undan katta bo'lgan xandaqlar hosil bo'lgan. Joylarda ularning maydoni 0,5- 4,0 gektargacha boradi. Achinarlisi shundaki, hozirgi kunda bu xandaqlarga Kogon tumanidan keltirilgan chiqindilar tashlangan. Mazkur maydonlarni "buzilgan yerlar" deb qarash joiz. Ular foydali qazilmalarni qazib olish natijasida tuproq-grunt qoplami va gidrogeologik sharoitning buzilishi va texnogen relyef shakllarining hosil bo'lishi natijasida xo'jalik va estetik ahamiyatini yo'qotgan va tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yerlardir.

Rekultivatsiya – bu foydali, amaliy tadbir bo'lib, buzilgan yerlar bioresurslarini sun'iy va tabiiy ravishda qayta tiklashdir. Rekultivatsiya tushunchasi landshaftshunoslikda, qishloq xo'jaligida va

boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Mazkur muammo bilan K.Uolvork (1972), L.M.Motorina va V.A.Ovshinnikova (1979), N.F.Reymers (1990), N.B.Bekaryevish (1990), A.Nig‘matov (2004), H.Vahobovlar (2008) shug‘ullanishgan.

Xulosa o’rnida aytish joizki, aynan rekultivatsiyaga muhtoj hududlardan biri bu Quyimozor – To‘dako‘l hududidir. Mazkur hudud ma’muriy jihatdan salkam to‘lig‘icha Navoiy viloyatining Qiziltepa tumaniga tegishli bo‘lib, faqatgina janubi-g‘arbiy chegara qismi Buxoro viloyatining Buxoro tumaniga va Xojkab pastqamligidan Shohrud suv taqsimlagichigacha bo‘lgan yo‘lak esa Kogon tumaniga qaraydi.

Quyimozor va To‘dako‘lning markaziy qismlari to‘lqinli relyefga ega bo‘lib, ahyon-ahyonda gumbazsimon bo‘rtib turgan tepaliklar (Oltin 252 m., Qodirshayx 255 m.) relyefni birmuncha murakkablashtiradi. Hudud geologik jihatdan yosh bo‘lib asosan to‘rtlamchi davrning allyuvial yotqiziqlari bilan qoplangan. To‘rtlamchi davr mobaynida Qashqadaryo hududidan kirib kelgan Suvqayti, Oqjar kabi soylar (daryolari) va Zarafshon daryosining chap tarmog‘i bilan kuchli qirqilgan. Bu jarayonlar eng yangi tektonik harakatlar bilan uyg‘unlashib Quyimozor, To‘dako‘l, Xojkab, Kunjako‘l kabi birmuncha errozion botiqlarning paydo bo‘lishiga va relyefning birmuncha murakkablashuviga olib kelgan.[2] Qurg‘oqchil iqlim sharoitida ro‘y bergan keyingi tabiiy-geografik jarayonlar tufayli hududning hozirgi geotizimlari yuzaga keldi. O‘rtacho‘l gipsli, sho‘rxokli, lyossli va qumli cho‘l majmualari xosdir. Lekin aksariyat maydonni gipsli cho‘llar egallaydi. Bular odatda topografik jihatdan nisbatan baland bo‘lgan joy-plato, qir tepaliklardir. Sho‘rxok cho‘llar esa errozion botiqlar, pastqamliklarda tarkib topgan. Lyossli cho‘llar Azkamar, Buyermana platolari va Qoratog‘ etaklaridagi nishab maydonlarni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Авакян А.Б., Салтанкин В.П., Шарапов В.А. Водохранилища. М.:“Мысл” 1987.
2. Mirzoyeva I.E., M.K.Ergasheva.Use of landscapes near Tudakul reservoir Eficiently.// BIO Web of Conferences , 05021 (2024 AQUACULTURE 2023 84 https.
3.Назараов И.Қ, Тошев Х.Р. Чўл ландшафтларини типологик таснифлашнинг асосий тамойиллари .Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 32 – жилд. – Тошкент , 2008. – Б. 18 - 20.
4. Нематов. А.Н, Мирзоева И.Э. Қоровулбозор тумани тупроқлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. “Географиянинг минтақавий муаммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари. Жиззах, 2017. – Б. 35 - 37.
5. Панков М.А. Дерново-буроземные почвы, светло-бурые почвы высоко-горных лугостепей. В кн. Почвы Узбекистана. – Т: Фан. 1949. -С.194-224.